

«TASDIQLAYMAN»
Xarid komissiyasining raisi,
Yashnobod tuman xalq ta'lim bo'limi
mudiri



Sh. Xolmurodov

2022 yil

2022 yilda Toshkent shahar Yashnobod tuman xalq ta'lim bo'limi buyurtmachiligida o'tkaziladigan qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 6 000 baravarigacha bo'lgan barcha Eng yaxshi takliflarni tanlash xaridlari bo'yicha Eng yaxshi takliflarni tanlashni tashkil etish va o'tkazish orqali, tanlash bo'yicha

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH KOMISSIYASINING ISH TARTIBI
(REGLAMENT)

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining ish tartibi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonunini talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, xarid komissiyasining Eng yaxshi takliflarni tanlashni tashkil etish va o'tkazish jarayonida olib boradigan ish tartibini belgilaydi.

1.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi kollegial organ va Eng yaxshi takliflarni tanlashning asosiy qatnashchisi (*Eng yaxshi takliflarni tanlash savdolarini o'tkazish jarayoning doimiy yoki vaqtinchalik organi*) hisoblanib, buyurtmachi tomonidan tashkil etilib, qaror yoki boshqa rasmiy hujjat bilan tasdiqlanadi, Eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazish jarayonida paydo bo'ladigan nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishga vakolatlidir.

1.3. Mazkur xarid komissiyasi Yashnobod tuman hokimining qarori bilan tasdiqlangan.

II. XARID KOMISSIYASINING ISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

2.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining dastlabki yig'ilishi Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatining ishlab chiqilishi jarayonida o'tkazilib, xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi:

- Eng yaxshi takliflarni tanlash va qatnashchilarning malakasini oldindan aniqlash hujjatlarini, taklifni joylash shartlari va talablarini;
- takliflarning texnik va moliyaviy baholash mezonlarini;
- Eng yaxshi takliflarni tanlashda qatnashishga buyurtmanomalarini ta'minlash shaklini;
- Taklifni qabul qilishning mudatini, takliflarni ko'rib chiqish mudatini, bunda maxsus axborot portalida e'lon berilgan kundan boshlab 5 ish kunidan kam bo'lmasligi shart.

2.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarining texnik va moliyaviy baholashning tavsiyaviy mezonlari 2-ilovada keltirilgan.

2.3. Texnik va moliyaviy baholash mezonlari ish turi, taklif qilingan narxlar va bajarish muddatlaridan kelib chiqib har bir ob'ekt bo'yicha alohida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

2.4. Xarid komissiyasi qaysi bir Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchisiga ustunlik beruvchi Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarining baholash mezonlarini belgilashga haqli emaslar.

2.5. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi barcha ob'ektlarni Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq takliflarni o'rganadi, tekshiradi va ko'rib chiqadi, Eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibini aniqlaydi yoki boshqa qaror qabul qiladi;

2.6. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining har bir ob'ekt bo'yicha komissiya raisi va ishtirok etgan barcha komissiya a'zolari tomonidan elektron imzo orqali tasdiqlanadigan bayonnomalar yuritiladi.

III. MALAKAVIY HUJJATLARNI, TARKIBINI KO'RIB CHIQISH VA BAHOLASH

3.1. Barcha takliflar xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarining talablariga mos kelishi kerak;

- Malakaviy hujjatlar va ularning tarkibi hamda ularning to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshirilganda ularning ko'rinishi buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarining shartlariga mos kelishi kerak.

3.2. Agar hujjatlar mavjud bo'lmasa yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgan bo'lsa, Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarining moliyaviy takliflari inobatga olinmaydi.

3.3. Malakaviy hujjatlar tasdiqlangan mezonlar asosida o'rganib chiqiladi.

3.4. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi qatnashchilarning malaka ko'rsatkichlarini baholashda barcha komissiya a'zolari aloxida, shu bilan birga ishchi guruhining faoliyatiga zarur bo'lgan hollarda mustaqil ekspertlarni taklif etadi.

3.5. Baholash guruhlari yoki mustaqil ekspertlarga malakaviy hujjatlar tarkibini o'rganish bo'yicha aniq muddatlar belgilanib, taklif kiritish haqida topshiriqlar beriladi.

3.6. Malakaviy hujjatlar tarkibini o'rganib bo'lgandan so'ng eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi oddiy ovoz berish usuli bilan qaror qabul qiladi.

3.7. Agar qatnashchining taklifi keyingi bosqichlarga o'tishi uchun texnik baholash natijalari bo'yicha komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi ma'qullansa, xarid komissiyasining qarori ijobiy hisoblanadi.

3.8. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining ovozga qo'yish natijalari haqidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi va oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi.

3.9. Har bir taklifning keyingi bosqichlarga o'tishi uchun Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi 60 ball va undan yuqori ball to'plashi kerak, g'olibni aniqlashda yoki komissiya a'zolarini boshqa xulosa va qarorlari, "Ha", "Yo'q" yoki "Betaraf" ovoz berish usuli orqali amalga oshiriladi.

ENG YaXShi TAKLIFLARNI BAHOLASH VARAG'I
(texnik talab)

Monoblok 23.8	Monoblok 23.8 FullHD 1920x1080 protsessor corei5 avlodi 11 yadro soni 4 yadro soni 4 ta 8 chastotali 2.4 / 4.2 RAM 8 GB DDR4 3200 MGts hajmi HDD 1000 GB anakart mavjudligi 2 M.2 uyasi (WLAN va 1 M.2. 2 saqlash uyasi.) 1 SATA xotira uyasi / 2 yoki undan ortiq xotira uyasi. multimediya veb-kamera kamida FullHD maksimal piksellar sonini 1920 x 1080 mikrofon, dinamik portlar slotlari foydalanuvchi uchun USB, HDMI va RJ-45 kabi portlarning mavjudligi, bajarilishi turiga qarab, zavodning kombinatsiyasi, simsiz va simli mahalliy hudud tarmog'i (WLAN) kamida 10 /100/1000 Mbit / s / Wi-Fi / Bluetooth / Ethernet klaviaturasi va bir xil markali sichqoncha: Ruscha tartibli simli USB klaviatura (o'yib yozilmagan), aylantirish g'ildiragi bilan optik USB sichqoncha 1 yil kafolat
Monoblok 23.8	Monoblok 23.8 FullHD 1920x1080 protsessor corei3 avlod 10 yadro 4 yadro 4 ta 8 chastota 3.6 / 4.3 RAM 8 GB DDR4 2666 MGts SSD 256 GB anakart 2 M.2 uyasi (simsiz modul M.LAN2 uchun 1 M.2 uyasi va LAN2. uyasi.) 1 SATA saqlash uyasi / kamida 2 xotira uyasi. multimediya veb-kamera kamida FullHD maksimal piksellar sonini 1920 x 1080 mikrofon, dinamik portlar slotlari foydalanuvchi uchun USB, HDMI va RJ-45 kabi portlarning mavjudligi, bajarilishi turiga qarab, zavodning kombinatsiyasi, simsiz va simli mahalliy hudud tarmog'i (WLAN) kamida 10 /100/1000 Mbit / s / Wi-Fi / Bluetooth / Ethernet klaviaturasi va bir xil markali sichqoncha: Ruscha tartibli simli USB klaviatura (o'yib yozilmagan), aylantirish g'ildiragi bilan optik USB sichqoncha 1 yil kafolat
Printer	Asosiy xarakteristikalar Qurilma printeri, Bosib chiqarish: lazeri Bosib chiqarish, rangi: qora va oq, Maksimal hajmi A4 Ilova, maydoni Kichik ofis Joy Ish stoli, Printer Bosib chiqarish texnologiyasi Lazer S/B, chop etish uchun maksimal, X piksellar sonini 600 Siyah, rangli chop etish uchun maksimal, Y piksellar sonini 600 Speed (S/B chop etish tezligi (A4/sn st/n chop etish vaqti) (A4/sn. Vt chop etish vaqti) standart) 100 dona Bypass tepsisi hajmi 1 dona Sahifalar Xotira/Protsessor Xotira sig'imi 2 MBMaksimal xotira 2 MB Interfeyslar USB Other OS qo'llab-quvvatlash Windows Minimal tizim talablari+ 32Mb.

ENG YAXSHI TAKLIFLARNI BAHOLASH VARAG'I
(texnik baxolash)

T/r	parametrining nomi	Ballar miqdori	Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchilari		
1.	Eng yaxshi takliflarni tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar	25			
2.	Soliqlar bo'yicha qarzдорlikning mavjud emasligi tugrisida malumot	25			
3.	Ishtirokchining qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatlari	25			
4.	Talab etilgan Maxsulotning xar biridan e'lon tugaguniga qadar bir nusxadan tanlov komissiyasiga taqdim qilishi shart.	25			